



## KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA ILMİY-NAZARIY ASOSLARI

*Tilakov Navruz Maxmudovich*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*mustaqil izlanuvchisi*

*E-mail: navruz001@gmail.com*

*ORCID:0009-0002-8586-4456*

## CONTENT AND SCIENTIFIC-THEORETICAL BASIS OF FINANCING INVESTMENT ACTIVITIES OF SMALL BUSINESSES

*Tilakov Navruz Maxmudovich*

*Tashkent State University of Economics*

*independent researcher*

*E-mail: navruz001@gmail.com*

*ORCID:0009-0002-8586-4456*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirishning mazmun-mohiyati, iqtisodiy ahamiyati hamda uni tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Shuningdek, kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirish manbalari, jumladan, o'z mablag'lari, bank kreditlari, davlat moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, xorijiy investitsiyalar va muqobil moliyalashtirish vositalarining o'rni yoritilgan. Tadqiqot davomida investitsion faoliyatni samarali moliyalashtirish kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili ekanligi asoslab berilgan. Shu bilan birga, investitsion faoliyatni moliyalashtirish tizimida mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, investitsion faoliyat, moliyalashtirish manbalari, investitsiyalar, bank krediti, innovatsion rivojlanish, moliyaviy resurslar, tadbirkorlik faoliyati, investitsion jozibadorlik

**Abstract.** This article examines the essence, economic significance and theoretical and methodological foundations of financing the investment activities of small businesses. It also highlights the sources of financing the investment activities of small businesses, including own funds, bank loans, state financial support mechanisms, foreign investments and the role of alternative financing instruments. The study substantiates that effective financing of investment activities is an important factor in increasing the competitiveness of small businesses, expanding production volumes, developing innovative activities and ensuring economic growth. At the same time, scientific and practical proposals and recommendations for solving the existing problems in the system of financing investment activities were developed.

**Keywords:** small business, investment activity, sources of financing, investments, bank credit, innovative development, financial resources, entrepreneurial activity, investment attractiveness, economic growth



**Kirish.** Kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirish zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki kichik biznes iqtisodiy o'sishning drayveri sifatida yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish va raqobat muhitini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu subyektlarning barqaror rivojlanishi esa bevosita ularning investitsion faolligiga va bu faoliyatni moliyalashtirish imkoniyatlariga bog'liqdir. Amaliyotda kichik biznes subyektlari o'z investitsion loyihalarini amalga oshirishda turli moliyalashtirish manbalaridan foydalanadi. Bular qatoriga o'z mablag'lari, tijorat banklari kreditlari, mikromoliyaviy tashkilotlar resurslari, davlat tomonidan ajratiladigan subsidiyalar va grantlar, shuningdek, xorijiy investitsiyalar kiradi. Biroq, kichik biznesning moliyaviy resurslari cheklanganligi, kredit olishdagi murakkabliklar, yuqori foiz stavkalari hamda risk darajasining yuqoriligi ularning investitsion faoliyatini to'liq amalga oshirishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, global iqtisodiy tajriba shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni samarali moliyalashtirish uchun moliyaviy instrumentlar va mexanizmlarning xilma-xilligini ta'minlash zarur. Xususan, lizing, faktoring, venchur kapital, kraudfanding kabi muqobil moliyalashtirish manbalari kichik biznes subyektlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli moliya texnologiyalarining rivojlanishi esa ushbu jarayonni yanada soddalashtirib, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

**Adabiyotlar sharhi.** Xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan kichik

biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmun-mohiyati, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, shuningdek, ushbu sektor subyektlarining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va strategik ahamiyati yuzasidan keng ko'lamlil ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mazkur izlanishlarda kichik biznesning institutsional xususiyatlari, uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi funksional roli hamda iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlashdagi ahamiyati turli nazariy yondashuvlar asosida chuqur tahlil qilingan. Shu jihatdan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi iqtisodiy adabiyotlarda dolzarb ilmiy muammo sifatida o'z aksini topgan.

Nobel mukofoti sovrindori Duglass Nort "institutsional iqtisodiyot nazariyasida kichik biznes rivojlanishi institutlar sifati va mulk huquqi himoyasiga bog'liqligini ta'kidlaydi"<sup>1</sup>. Fikrimizcha, Nobel mukofoti sovrindori D. Nort tomonidan ilgari surilgan ushbu yondashuv kichik biznes rivojlanishining institutsional asoslarini chuqur yoritib beradi. Unga ko'ra, kichik biznesning barqaror rivojlanishi avvalo institutlar sifati, ya'ni huquqiy tizimning samaradorligi, shartnomalarning bajarilishi va mulk huquqlarining ishonchli himoyasi bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur nazariya shuni ko'rsatadiki, institutsional muhit qanchalik barqaror va shaffof bo'lsa, tadbirkorlik faoliyatini yuritishdagi tranzaksiya xarajatlari shunchalik kamayadi hamda kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faolligi ortadi. Shu bois, fikrimizcha, Nortning institutsional yondashuvi kichik biznesni rivojlantirishda faqat iqtisodiy omillar emas, balki huquqiy va institutsional kafolatlar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

<sup>1</sup> North, D. C. (1990). Institutions, institutional change and economic performance. Cambridge University Press.



Yana bir Nobel mukofoti sovrindori Stiglis "kichik biznes moliyalashtirishda asimmetrik axborot muammosi muhimligini asoslagan"<sup>2</sup>. Fikrimizcha, Nobel mukofoti sovrindori J. Stiglitz tomonidan ilgari surilgan ushbu yondashuv kichik biznesni moliyalashtirish jarayonidagi axborot nomutanosibligi (asimmetrik axborot) muammosining iqtisodiy mohiyatini chuqur ochib beradi. Unga ko'ra, kredit beruvchi moliyaviy institutlar va kichik biznes subyektlari o'rtasida to'liq va ishonchli axborot almashinuvi mavjud emasligi kredit risklarini oshiradi hamda moliyalashtirish shartlarini murakkablashtiradi. Mazkur holat kichik biznes uchun tashqi moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini cheklab, ularning rivojlanish sur'atlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, fikrimizcha, Stiglitzning nazariy qarashlari kichik biznesni moliyalashtirish tizimida axborot shaffofligini ta'minlash, kredit baholash mexanizmlarini takomillashtirish hamda davlat kafolatlari va qo'llab-quvvatlash instrumentlarini rivojlantirish zarurligini ilmiy asosda ko'rsatib beradi.

A.Smit "Tadbirkorlikni ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishi maqsadida biznes tavakkalchiligi asosida pirovard maqsadi foyda olish bo'lgan mulk egasi deb tavsiflaydi. Uning o'zi ishlab chiqarishni tashkil qiladi, rejalashtiradi, iste'molchilarga yetkazib beradi va uning natijalariga egalik qiladi"<sup>3</sup>. Fikrimizcha, mazkur yondashuv tadbirkorni faqat individual foyda oluvchi subyekt sifatida talqin qilsa-da, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikning funksional doirasi ancha kengaygan. Hozirgi bosqichda

tadbirkorlik nafaqat foyda olish, balki innovatsiyalarni joriy etish, ish o'rinlarini yaratish, raqobat muhitini rivojlantirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi tizimli institut sifatida qaralmoqda. Shu bois, tadbirkorlikni faqat mulk egasining shaxsiy faoliyati sifatida emas, balki bozor iqtisodiyotining muhim institutsional elementi sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv uning jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini yanada kengroq ochib beradi.

J.Sey esa o'z tadqiqotlarida tadbirkorlikni kengroq hamda tushunarliroq ta'riflab bergan. Seyning ta'kidlashicha "Tadbirkor eng ko'p daromad olish maqsadida ishlab chiqarish omillarini bir-biriga uyg'unlashtirish ishlari bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy agent - deya e'tirof etadi"<sup>4</sup>. Fikrimizcha, J.Seyning ushbu konsepsiyasi tadbirkorlikning zamonaviy talqiniga yaqinroq bo'lib, u bozor iqtisodiyotida resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan tadbirkor nafaqat ishlab chiqarish jarayonini tashkil etuvchi subyekt, balki iqtisodiy muvozanatni shakllantirishda faol ishtirok etuvchi institutsional agent sifatida ham qaralishi lozim. Bu esa tadbirkorlikning iqtisodiy tizimdagi rolini yanada kengroq va chuqurroq anglash imkonini beradi.

Avstriya maktabi namoyondalari I.Shumpeter va F.Xayek ilmiy ishlanishlarida "Tadbirkor xo'jalik yurituvchining o'ziga xos ijtimoiy psixologik tipi shakli sifatida ta'riflanib, tadbirkor uchun asosiysi turli xildagi bozor imkoniyat hamda talablarini tadqiq qilish, foydalanish, novatorlik g'oyalarini amaliyotga joriy qilishdan

<sup>2</sup> Stiglitz, J. E., & Weiss, A. (1981). Credit rationing in markets with imperfect information. *American Economic Review*, 71(3), 393–410.

<sup>3</sup> Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов. Пер.с англ. М.: 1962 г.-408с.

[https://www.gumer.info/bibliotek\\_Buks/Econom/smit/05.php](https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Econom/smit/05.php).

<sup>4</sup> Сэй Ж.-Б. Трактат по политической экономии. М., 1996. [Электронный ресурс] // URL: <http://geum.ru/next/art-317992.php>.

iborat"<sup>5</sup>deb hisoblaydi. Fikrimizcha, I.Shumpeter va F.Xayek tomonidan ilgari surilgan ushbu yondashuv tadbirkorlikning zamonaviy innovatsion mohiyatini chuqur ochib beradi. Ushbu konsepsiyada tadbirkor faqat resurslarni birlashtiruvchi yoki foyda oluvchi subyekt sifatida emas, balki bozor tizimida o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi, yangi g'oyalarni amaliyotga tatbiq etuvchi novator sifatida talqin qilinadi.

A.G.Aganbegyan ilmiy tadqiqot ishida, kichik biznes subyektlari – bu iqtisodiyotning moddiy mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, nomoddiy boyligni yaratuvchi va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlaridir<sup>6</sup>. Fikrimizcha, A.G. Aganbegyan tomonidan berilgan ushbu ta'rif kichik biznes subyektlarining iqtisodiy mazmunini keng qamrovli va funksional yondashuv asosida yoritadi. Unda kichik biznes nafaqat moddiy mahsulot ishlab chiqaruvchi, balki nomoddiy boylıklar yaratish hamda xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yurituvchi ko'p tarmoqli xo'jalik subyektlari sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv kichik biznesning iqtisodiyotdagi universalligi va diversifikatsiyalashgan xususiyatini ifodalaydi. Shuningdek, mazkur ta'rif kichik biznesning real sektor va xizmatlar sohasi o'rtasidagi integratsion bog'liqligini ham aks ettiradi. Fikrimizcha, Aganbegyan qarashlari kichik biznesni iqtisodiy tizimning muhim, moslashuvchan va ko'p funksiyali instituti sifatida baholashga imkon beradi hamda uning milliy iqtisodiyotdagi rolini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Amerikalik iqtisodchi olim Dj.Styuart Mill: "Kichik biznesning xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi: kichik biznes, ko'pchilik yangi mahsulot yoki xizmat turining bunyod etilishi uchun boshlang'ich ishlab chiqarish nuqtasidir; kichik biznes ixtisoslashgan mahalliy ehtiyojlarini qondirishga yaxshi moslashgan bo'ladi; kichik biznes o'z iste'molchisini shaxsan bilishi muhim bo'lgan xizmat turlarini taklif etadi"<sup>7</sup>. Fikrimizcha, Dj.Styuart Mill tomonidan ilgari surilgan ushbu qarashlar kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi funksional va institutsional ahamiyatini aniq yoritib beradi. U kichik biznesni nafaqat ishlab chiqarishning boshlang'ich bo'g'ini, balki innovatsion g'oyalar va yangi mahsulot hamda xizmat turlarining paydo bo'lish manbai sifatida talqin qiladi.

Iqtisodchi L.Gurovning ilmiy tadqiqotlarida<sup>8</sup> "Kichik biznes quyidagi afzalliklarga ega: ustun darajada iqtisodiy o'sishning sur'atlarini belgilaydi, moddiy, moliyaviy va kadrlar resurslarining samarali taqsimlanishiga yordam beradi, ish o'rinlarini vujudga keltiradi, yangi ish joylarni tashkil etish yirik korxonalariga qaraganda ancha kam xarajat talab qiladi"<sup>9</sup>. Fikrimizcha, L.Gurov tomonidan ilgari surilgan mazkur yondashuv kichik biznesning makroiqtisodiy ahamiyatini tizimli va asosli tarzda ochib beradi. Kichik biznesning iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir etishi uning moslashuvchanligi va bozor talablariga tez javob bera olishi bilan izohlanadi. Shu bilan

<sup>5</sup> Шумпетер Й. А. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1982. [Электронный ресурс] // URL: <http://socioline.ru/book/j-shumpeter-teoriyaekonomicheskogo-razvitiya#attachments>.

<sup>6</sup> Аганбегян А.Г. Модернизация реального сектора экономики // Деньги и кредит. 2010. № 3. С. 6.

<sup>7</sup> Дж.С.Милл «Основы политической экономии и некоторые аспекты их приложения к социальной философии» (1848).

<sup>8</sup> Urmonov J.J. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent, Soliq Akademiyasi, 2018 yil.

<sup>9</sup> Gurov L. Kichik tadbirkorlikning yangi imkoniyatlari.// Bozor, pul va kredit. – T.: 1999. – №7. – 32 b.

birga, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarining samarali taqsimlanishiga xizmat qilishi iqtisodiyotda resurslardan foydalanish optimallashtirishini ta'minlaydi.

Akademik iqtisodiyot fanlari doktori, professor S.S.G'ulomov fikriga ko'ra, "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik har qanday sharoitda iqtisodiy tushkunlikda ham, inflyatsiya davrida ham, kreditlar foizi o'ta yuqori bo'lganda ham, zarur infratuzilmasiz kelajagi noma'lum hollarda ham, xavf-xatar qanchalik yuqori bo'lishiga qaramay yashayveradi"<sup>10</sup> deya ta'kidlab o'tgan. Fikrimizcha, akademik S.S.G'ulomov tomonidan ilgari surilgan ushbu ilmiy qarash kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy tizimdagi eng muhim xususiyatlaridan biri — yuqori darajadagi moslashuvchanlik va barqarorlikni chuqur ifodalaydi. Kichik biznesning turli makroiqtisodiy noaniqliklar, jumladan iqtisodiy tushkunlik, inflyatsiya yoki kredit resurslari qimmatlashuvi sharoitida ham faoliyatini davom ettira olishi uning institutsional chidamliligini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.O'lmasov "Kichik biznes – kishilar (mulkchilik) sub'ektlari tasarrufida bo'lgan moddiy va moliyaviy resurslarni (mablag'larini) amalda tadbirkorlik sub'ektlari aylanmasiga, daromad topishga mo'ljallangandir"<sup>11</sup> deb ta'kidlagan. Fikrimizcha, A.O'lmasov tomonidan berilgan mazkur ta'rif kichik biznesning iqtisodiy mazmunini mulkchilik va resurslardan foydalanish nuqtayi nazaridan asosli ravishda yoritadi. Unda kichik biznes subyektlari ixtiyoridagi moddiy va moliyaviy resurslarning tadbirkorlik faoliyati aylanishiga jalb etilishi hamda asosiy maqsad sifatida daromad olish ko'zlanishi

ta'kidlanadi. Bu yondashuv kichik biznesni iqtisodiy jarayonda resurslarni kapitalga aylantiruvchi muhim mexanizm sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Professor Y.Abdullayev o'z tadqiqotlarida "Tadbirkorlik - mamlakatda belgilangan qonunlar doirasida, daromad yoki foyda olish maqsadida, korxonalar va fuqarolar tomonidan ma'lum bir faoliyat doirasida tavakkalchilik asosida, o'zining mulkiy javobgarligi asosida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyat"<sup>12</sup> deb ta'rif bergan. Fikrimizcha, professor Y.Abdullayev tomonidan berilgan ushbu ta'rif tadbirkorlikning huquqiy, iqtisodiy va institutsional jihatlarini kompleks yoritib beradi. Unda tadbirkorlik faoliyatining qonunchilik doirasida amalga oshirilishi, daromad yoki foyda olishga yo'naltirilganligi hamda tavakkalchilik va mulkiy javobgarlik asosida tashkil etilishi aniq ko'rsatib o'tilgan. Bu esa tadbirkorlikni nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki huquqiy mas'uliyat bilan bog'liq tizimli jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv tadbirkorning tashabbuskorlik va riskni boshqarish qobiliyatini ham muhim omil sifatida ajratib ko'rsatadi. Fikrimizcha, ushbu ta'rif zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikning mohiyatini to'liq ochib berishga yaqin bo'lib, uning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rnini yanada aniqroq ifodalaydi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlardan Sh.Toshmatov o'z ilmiy tadqiqotlarida ular faoliyatini soliqqa tortish mezonlariga ham alohida to'xtalib o'tgan. Unga ko'ra "Kichik biznes korxonalari faoliyatini coliqqa tortish nuqtai-nazaridan yondashish lozim. Ularga huquqiy maqom berishda, har bir davlat o'ziga xos tarzda yondashishga harakat

<sup>10</sup> G'ulomov S. Tadbirkorlik va kichik biznes.-T.: «Sharq», 2002-9 b.

<sup>11</sup> O'lmasov A, Sharifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik.-T.: «Mexnat», 1999- 243 b.

<sup>12</sup> Yo.Abdullaev va boshkalar.Tadbirkor yon daftari: kichik biznes va tadbirkorlik.T: "Mehnat", 1999-12 b.

qiladi"<sup>13</sup>. Fikrimizcha, Sh.Toshmatov tomonidan ilgari surilgan mazkur yondashuv kichik biznes subyektlarini tartibga solishda soliq siyosatining o'rnini va ahamiyatini chuqur ochib beradi. Kichik biznesni soliqqa tortish mezonlaridan kelib chiqib baholash ularning iqtisodiy faoliyatini rasmiylashtirish, fiskal intizomni ta'minlash hamda davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, har bir davlatning kichik biznesga huquqiy maqom berishda o'ziga xos yondashuvni qo'llashi milliy iqtisodiy sharoitlar, bozor infratuzilmasi va soliq yukining optimallashtirish darajasi bilan bog'liqdir. Shu bois, ushbu yondashuv kichik biznesni rivojlantirishda fiskal siyosatning moslashuvchanligi va institutsional asoslanganligini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Demak, Toshmatovning fikrlari kichik biznesni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

R.M.Yunusov fikriga ko'ra, "kichik biznes – amaldagi huquqiy me'yorlar va erkin raqobat muhiti sharoitidagi foydali iqtisodiy faoliyatning o'ziga xos turi sifatida to'lovga layoqatli aholi talabini qondirish hamda ijtimoiy muammolar yechimiga erishish vositasi bo'lib, tarkibiy jihatdan yakka tadbirkorlik, mikrofirmalar va kichik korxonalar iboratdir"<sup>14</sup>. Fikrimizcha, R.M. Yunusov tomonidan berilgan ushbu ta'rif kichik biznesning institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini kompleks tarzda yoritadi. Unda kichik biznes amaldagi huquqiy me'yorlar va erkin raqobat muhiti sharoitida faoliyat yurituvchi, to'lovga qodir aholi talabini qondirishga hamda ijtimoiy

muammolarni hal etishga xizmat qiluvchi iqtisodiy faoliyat turi sifatida talqin etiladi.

A.Djalilov o'z tadqiqotlarida "Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini ikkiga bo'lish mumkin: bular davlat va korporativ"<sup>15</sup> tarzida yondashgan. Fikrimizcha, A. Djalilov tomonidan ilgari surilgan ushbu yondashuv kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini institutsional jihatdan aniq tasniflashga xizmat qiladi. Unda kichik biznesni moliyalashtirish manbalari davlat va korporativ yo'nalishlarga ajratilib, har ikkala sektorning iqtisodiy jarayondagi o'rnini va funksional vazifalari alohida yoritiladi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari odatda imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va kafolatlar tizimi orqali amalga oshirilsa, korporativ moliyalashtirish esa tijorat banklari, xususiy investitsiya institutlari va yirik biznes tuzilmalari ishtirokida shakllanadi.

U.G'afurov tadqiqotlarida "kichik biznesni qo'llab-quvvatlash kompleks iqtisodiy mexanizm sifatida qaraladi va u quyidagi 3 ta asosiy qismdan iborat: davlat tartibga solish mexanizmi; moliyaviy resurslarga foydalana olish imkoniyati; raqobat va samaradorlik muhiti"<sup>16</sup>. Fikrimizcha, U. G'afurov tomonidan ilgari surilgan ushbu yondashuv kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimini kompleks iqtisodiy mexanizm sifatida talqin etishi bilan ilmiy-amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Unda mazkur tizim uch asosiy tarkibiy qismdan iborat ekani asoslab beriladi: davlatning tartibga solish mexanizmi,

<sup>13</sup>Sh.A. Toshmatov. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish asoslari. Monografiya. –T.: "Moliya", 2012. –22 b.

<sup>14</sup> Yunusov R.M. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarini moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'llari. I.f.n. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref. – T.: "TDIU", 2008. – B. 7.

<sup>15</sup> Джалилов, А. А. (2016). Кичик бизнесни давлат томонидан молиявий қўллаб-қувватлашнинг асосий шакллари. Экономика и финансы (Узбекистан), (9), 35-40.


<sup>16</sup> Гафуров, У.В. (2016). Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Монография. Т.: Молия, 208.

moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari hamda raqobat va samaradorlik muhiti.

Wikipediya esa "kichik va o'rtabiznes – mustaqil mulk egaligiga, xo'jalik faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan va o'z tarmog'ida hukmron mavqe tutmaydigan biznes. Turli mamlakatlarda kichik va o'rtabiznes subyektlari maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo'lgan ishlovchilar soni, korxonaning tovar aylanmasi, aktivlar, kapitalar, foyda miqdori va boshqa ko'rsatkichlardan foydalaniladi"<sup>17</sup>. Fikrimizcha, Vikipediya berilgan ushbu ta'rif kichik va o'rtabiznesning institutsional hamda iqtisodiy mezonlarini umumlashtirilgan va amaliy jihatdan tushunarli shaklda ifodalaydi. Unda kichik va o'rtabiznes mustaqil mulk egaligiga asoslangan, xo'jalik faoliyatini erkin tashkil etuvchi hamda o'z tarmog'ida monopol mavqega ega bo'lmagan iqtisodiy subyektlar sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat muhitini saqlash

va rivojlantirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

**Tahlil va natijalar.** Kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirish iqtisodiy rivojlanish jarayonida muhim o'rin tutadi, chunki aynan ushbu sektor yangi ish o'rinlarini yaratish, raqobat muhitini kuchaytirish va innovatsiyalarni joriy etishda yetakchi rol o'ynaydi. Biroq kichik biznesning moliyaviy imkoniyatlari yirik korxonalariga nisbatan ancha cheklangan bo'lib, bu ularning investitsion faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi, kredit resurslariga kirishdagi qiyinchiliklar hamda yuqori risk darajasi ushbu subyektlarning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi. Shu bilan birga, kichik biznesning moslashuvchanligi va innovatsion salohiyati uning investitsion jozibadorligini oshiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.




**1-rasm. Kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari<sup>18</sup>**

Kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular bir tomondan cheklovchi omillar, ikkinchi tomondan esa rivojlanish imkoniyatlarini ifodalaydi. Xususan, moliyaviy resurslarning cheklanganligi va kredit olishdagi qiyinchiliklar ushbu subyektlarning investitsion faoliyatini sustlashtiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, yuqori risk darajasi investorlar uchun qo'shimcha ehtiyot choralarini talab qiladi. Biroq kichik biznesning tezkor moslashuvchanligi va innovatsion faoliyatga moyilligi uning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur sharoitda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish hamda muqobil moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek,

moliyaviy infratuzilmani takomillashtirish va investitsion muhitni yaxshilash orqali kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash mumkin. Natijada, ularning investitsion faolligi ortadi va iqtisodiyotning barqaror o'sishiga sezilarli hissa qo'shiladi.

Kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirishni ilmiy asosda tasniflash ushbu jarayonni samarali tashkil etish va boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki moliyalashtirish manbalari, shakllari va usullarining xilma-xilligi kichik biznesning investitsion imkoniyatlarini kengaytiradi hamda moliyaviy risklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Amaliyotda kichik biznes subyektlari ko'pincha cheklangan moliyaviy resurslarga ega bo'lgani sababli, mavjud manbalarni to'g'ri tanlash va ulardan samarali foydalanish dolzarb masala hisoblanadi.



2-rasm. Kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirish tasniflanishi<sup>19</sup>

<sup>19</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

Moliyalashtirishni turli mezonlar asosida tasniflash – manbalariga, shakliga, muddatiga, jalb etish usuliga, kelib chiqishiga hamda davlat ishtiroki darajasiga ko‘ra ajratish – kichik biznesning moliyaviy strategiyasini shakllantirishda muhim nazariy va amaliy asos yaratadi. Bu yondashuv orqali tadbirkorlar o‘z faoliyatiga mos keladigan moliyalashtirish mexanizmlarini tanlashi, investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirishi hamda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashi mumkin. Shu bois, mazkur tasniflash kichik biznesni rivojlantirishda muhim vosita sifatida qaraladi.

Kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirishni tasniflash ularning moliyaviy imkoniyatlarini chuqurroq anglash va samarali boshqarish imkonini beradi. Moliyalashtirish manbalariga ko‘ra ichki va tashqi resurslardan foydalanish, shakliga ko‘ra esa kreditlar, obligatsiyalar va boshqa instrumentlarning qo‘llanilishi kichik biznes uchun turli alternativlarni yaratadi. Shu bilan birga, moliyalashtirish muddatiga ko‘ra to‘g‘ri tanlov qilish investitsiya loyihalarining rentabelligi va likvidligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Jalb etish usullarining xilma-xilligi, xususan, lizing va faktoring kabi zamonaviy mexanizmlarning qo‘llanilishi kichik biznes subyektlari uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, moliyalashtirish manbalarining kelib chiqishiga ko‘ra milliy va xorijiy resurslardan foydalanish investitsion faoliyat ko‘lamini kengaytiradi. Davlat ishtiroki darajasiga ko‘ra esa qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi kichik biznesning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Umuman olganda, moliyalashtirishni to‘g‘ri tasniflash va undan oqilona foydalanish kichik biznes subyektlarining investitsion faolligini oshirish, moliyaviy barqarorligini

mustahkamlash hamda iqtisodiyotda ularning rolini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirish masalasi zamonaviy iqtisodiyotda eng muhim va dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Amalga oshirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes iqtisodiy o‘sish, bandlikni ta‘minlash, ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish hamda hududiy rivojlanishni jadallashtirishda asosiy drayverlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, ushbu sektorning investitsion faolligi bevosita moliyaviy resurslar mavjudligi, ularning arzonligi va qulayligi, shuningdek, institutsional muhitning barqarorligiga bog‘liqdir.

**Xulosa.** Tahlil natijalari kichik biznes investitsiyalarining asosiy kapitalga yo‘naltirilishi yildan-yilga sezilarli darajada oshib borayotganini ko‘rsatadi. Bu jarayon iqtisodiyotda olib borilayotgan tarkibiy islohotlar, tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan davlat siyosati, kredit-moliya tizimining rivojlanishi hamda investitsion infratuzilmaning kengayishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, mikromoliyalash, imtiyozli kreditlash, davlat kafolatlari va subsidiyalar tizimi kichik biznesning investitsion imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirish jarayonida bir qator muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, kredit foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi, garov ta‘minoti bilan bog‘liq talablarning murakkabligi hamda axborot asimmetriyasi muammosi investitsion jarayon samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, hududlar o‘rtasida moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlaridagi tafovutlar ham kichik



biznes rivojlanishining notekisligiga sabab bo'lmoqda.

Xalqaro va mahalliy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes investitsion faoliyatini samarali moliyalashtirish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu yondashuv davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, moliyaviy bozor infratuzilmasini rivojlantirish, bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish hamda nodavlat moliyaviy institutlar rolini

kengaytirishni o'z ichiga olishi lozim. Shuningdek, venchur moliyalashtirish, lizing, kraudfanding kabi zamonaviy investitsion instrumentlarni joriy etish kichik biznesning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirish milliy iqtisodiyot barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega omil hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. North, D. C. (1990). Institutions, institutional change and economic performance. Cambridge University Press.
2. Stiglitz, J. E., & Weiss, A. (1981). Credit rationing in markets with imperfect information. *American Economic Review*, 71(3), 393–410.
3. Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов. Пер.с англ. М.: 1962 г.-408с.
4. Сэй Ж.-Б. Трактат по политической экономии. М., 1996. [Электронный ресурс] // URL: <http://geum.ru/next/art-317992.php>.
5. Шумпетер Й. А. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1982. [Электронный ресурс] // URL: <http://socioline.ru/book/j-shumpeter-teoriyaekonomicheskogo-razvitiya#attachments>.
6. Аганбегян А.Г. Модернизация реального сектора экономики // Деньги и кредит. 2010. № 3. С. 6.
7. Дж.С.Милл «Основы политической экономии и некоторые аспекты их приложения к социальной философии» (1848).
8. Urmonov J.J. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent, Soliq Akademiyasi, 2018 yil.
9. Gurov L. Kichik tadbirkorlikning yangi imkoniyatlari.// Bozor, pul va kredit. – T.: 1999. – №7. – 32 b.
10. G'ulomov S. Tadbirkorlik va kichik biznes.-T.: «Sharq», 2002-9 b.
11. O'lmasov A, Sharifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik.-T.: «Mexnat», 1999- 243 b.
12. Yo.Abdullaev va boshkalar.Tadbirkor yon daftari: kichik biznes va tadbirkorlik.T: "Mehnat", 1999-12 b.
13. Sh.A. Toshmatov. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish asoslari . Monografiya. –T.: "Moliya", 2012. –22 b.
14. Yunusov R.M. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarini moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'llari. I.f.n. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref. – T.: "TDIU", 2008. – B. 7.



15. Джалилов, А. А. (2016). Кичик бизнесни давлат томонидан молиявий қўллаб-қувватлашнинг асосий шакллари. Экономика и финансы (Узбекистан), (9), 35-40.
16. Гафуров, У.В. (2016). Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Монография. Т.: Молия, 208.